Materiallar to’plami · Conference Proceedings
QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY XOTIRA, MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY MEROS
10 September – 10 October 2026
UDK 1

# JAMIYAT IJTIMOIY-MA’NAVIY TARAQQIYOTIDA INSON RESURSLARINING AHAMIYATINI FALSAFIY TAHLILI

Farida Sobirjon qizi Salimova*
*Oriental Universiteti o’qituvchisi*
✉ salimovaf400@gmail.com

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada inson resurslarining jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyati falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Buning uchun antik va zamonaviy falsafiy qarashlar, shuningdek, insoniyatning ma’naviy taraqqiyotidagi hal qiluvchi omillar ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar**

inson resursi, ma’naviyat, axloq, kapital, inson, qobilyat, shaxs.

DOI: 10.5281/zenodo.23346869

Yangi O‘zbekistonda global jarayonlar natijasida amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy islohotlar sababli jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarida o‘zgarishlar bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy tizimlarning harakatchanligi oshgani sari, ijtimoiy munosabatlar rivojlanishi ham sodir bo‘lmoqda. Yangi voqelik o‘ziga xos ijtimoiy makon va ijtimoiy munosabatlarni, noyob jarayonlar va o‘zgaruvchan jamiyatning o‘ziga xos xususiyatlarini yaratmoqda. Zamonaviy hayotning tez o‘zgaruvchan sharoitlarida xodimlar noan’anaviy harakat qilish, tavakkalchilik sharoitida tezda qaror qabul qilish va ayniqsa murakkab guruh va guruhlararo vazifalarni hal qilishda mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish qobiliyatiga ega bo‘lishlari talab etilmoqda. Axloqiy normalar bilan belgilangan sotsiomadaniy makonda potensial va mental, ma’naviy va axloqiy jihatlar birlashadi, ichki va tashqi qarama-qarshiliklar yo‘q qilinadi, shaxs o‘zini anglaydi va ma’naviyat bilan uyg‘unlashib, borliqning yuksak cho‘qqilariga erishadi. Inson resurslari jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Insonning bilimlari, ijodiy salohiyati, axloqiy qadriyatlari va ma’naviy salohiyati jamiyatda barqaror rivojlanishning asosini tashkil etadi. Faylasuf olim A.Saitkasimovning ta’kidlashicha, “Mamlakatimizda ichki va tashqi ma’naviy tahdidlardan yoshlar ongini har tomonlama himoya qilish jamiyat ijtimoiy barqarorligining muhim kafolatidir. Yoshlarni har tomonlama komil inson qilib tarbiyalash, ularni ilm-fan cho‘qqilarini egallash, yangiliklarni joriy etish, innovatsion jarayonlarga o‘rgatib borish bugungi kunning dolzarb vazifasidir”.[1] Ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyotning o‘zagi inson takomili bilan bevosita bog‘liqdir. Insonning jamiyatda o‘zining taraqqiyotga daxldorligini ta’minlashda uning har qanday ijtimoiy vazifani yuqori darajada bajarishi bilan ham bog‘liq hisoblanadi. Bu salohiyat esa, har bir shaxsining o‘z xizmat vazifasini bajarishi va yuqori malakali ishchi xodim bo‘lib yetishishida ham namoyon bo‘ladi. Bu jarayon esa, o‘z navbatida jamiyatda inson resurslarining tamomillashuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Falsafa nuqtai nazaridan, inson resurslari faqat iqtisodiy kategoriya emas, balki ma’naviy ong va axloqiy qadriyatlar majmuasidir. Aristotelning «Nikomax etikasi» asarida ta’kidlanganidek, “Insonning axloqiy fazilatlari uning jamiyatdagi faolligi va ijtimoiy mas’uliyatini belgilaydi”.[2]

Aristotel insonning amaliyot (praxis) orqali kamolotga erishishini uqtiradi, bu esa inson resurslarining ma’naviy yuksalish uchun asos ekanini tasdiqlaydi. Gegel esa insonni oliy darajadagi maxluqot, o‘z aqli bi-

lan olamni bilishga, hatto uni o‘zgartirishga qodir bo‘lgan maxluqot deb hisoblaydi. Buyuk nemis mutafakkiri insonning ruhi bilan dunyoviy ruh orasidagi o‘zaro aloqadorlik, o‘zaro ta’sir qonunlarini ochib berishga katta kuch sarfladi. Buni allomaning “Ruh fenomenologiyasi” asarida yaqqol ko‘rish mumkin. Uning ta’kidlashicha, “ruh bu mutlaq g‘oya bo‘lib, insonning o‘zini o‘zi anglashi uchun ko‘mak beradi va shu jarayonda rivojlanib boradi”.[3] Ruh nafaqat individual, balki ijtimoiy ongning turli shakllarida namoyon bo‘ladi. U insonning ongi va erkinligi jamiyatning “absolyut ruh” orqali rivojlanishini ta’minlashini aytadi. Bu nuqtai nazardan, inson 84 resurslari jamiyatning ma’naviy salohiyatini oshirishga qaratilgan ongli faoliyatlar yig‘indisi sifatida qaralishi mumkin. Inson kapitali faqat iqtisodiy resurs emas, balki ma’naviy kapitaldir. Jon Lokk inson tabiatan toza safiha (“tabula rasa”) ekanini ta’kidlab, ta’lim va tarbiya orqali shakllanishini aytadi. Uning fikricha, “insonning ma’naviy yuksalishi ta’lim orqali amalga oshadi”. [4] Inson faoliyat ko‘rsatishda o‘z aqlida mavjud bo‘lgan bilimlarga tayanadi. Tabiiyki, insonning barcha jabhadagi faoliyatini aqi o‘zining ko‘zga ko‘rinmas kuchi bilan boshqaradi. Qalb aqlga quloq soladi, unga ergashib boradi va unga bo‘ysunadi. Shuning uchun ham ingliz mutafakkiri insonning aqIiy kamoloti haqida doimo qayg‘urish, uni yangi bilimlar bilan qurollantirib turishga da’vat etadi. Aqlni yangi bilimlar bilan qurollantirmoq uchun inson o‘zining fikr yuritish malakasini doimo takomllashtirib turishi lozim ekanligini uqtiradi. Fikr yuritish malakasini takomillashtirish yo‘llarini va uslublarini aniqlab berishga intiladi. Shuningdek, Jon Lokk inson jismoniy va ma’naviy qiyofasining shakllanishida tarbiyani ham muhim ahamiyatga ega ekanligini isbotlab berdi. Kant esa insonni “maqsad sifatida” qarab, uning axloqiy qadriyatlari va erkinligiga alohida e’tibor qaratadi. Kantning “Kategorik imperativ” g‘oyasi inson resurslarining ma’naviy negizini tushunishga yordam beradi. Ya’ni, inson o‘z axloqiy burchini bajargandagina haqiqiy ma’naviy yuksalishga erishadi. Sharq falsafasida, jumladan, Ibn Sino va Al-Farobiyning ta’limotlarida ham ilm-fan va ma’rifat insonning ma’naviy taraqqiyotining asosiy omili sifatida e’tirof etilgan. Insonning ma’naviy qiyofasi haqida fikr-mulohaza yuritgan Abu Nasr Forobiy, chinakam ma’naviy yetuk kishi qiyofasida bilim, axloqiylik bilan uyg‘unlashib bormog‘i zarur, deydi. Bilim, ilm hodisa va voqealarning mohiyatini, o‘zgarib turishining ichki sabablarini bilish uchun real imkoniyat yaratsa, axloqiylik insonni yaxshilikka, ezgulikka, yaxshilarning yaxshi fazilatlarini, hislatlarini o‘rganishga da’vat etadi. Ma’naviy yetuklik bu amaliy donishmandlikdir. Insonni insoniylik xususiyatlarini, xislatlarini bilish va ularga erishishning amaliy vositalarini anglashdir. Insonning ma’naviy qiyofasi haqida fikr-mulohaza yuritgan Abu Nasr Forobiy, chinakam ma’naviy yetuk kishi qiyofasida bilim, axloqiylik bilan uyg‘unlashib bormog‘i zarur, deydi. Bilim, ilm hodisa va voqealarning mohiyatini, o‘zgarib turishining ichki sabablarini bilish uchun real imkoniyat yaratsa, axloqiylik insonni yaxshilikka, ezgulikka, yaxshilarning yaxshi fazilatlarini, hislatlarini o‘rganishga da’vat etadi. Ma’naviy yetuklik bu amaliy donishmandlikdir. Insonni insoniylik xususiyatlarini, hislatlarini bilish va ularga erishishning amaliy vositalarini anglashdir. Abu Ali ibn Sinoning ta’kidlashicha, aqliy va axloqiy yetuk inson rnustaqil fikrlash rnalakasiga ega bo‘lmog‘i darkor. Mustaqil fikrlash rnalakasiga ega 85 bo‘lishni xohlagan har bir kishi mantiq, ya’ni farosat ilmini yaxshi o‘zlashtirib olishi zarur. Ibn Sinoning dalillashicha, “insonning eng muhim hislatlaridan biri o‘zi yashayotgan atrof-rnuhitda sodir bo‘layotgan hodisa va voqealarning mohiyatini bilib olishga qodirligidir”.[5] Inson olamni o‘zining ichki va tashqi sezgilari yordamida bilib oladi. Inson resurslarini rivojlantirishda ma’rifatning ahamiyatini tushunish jamiyatda ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Gegelning dialektik metodiga ko‘ra, jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyoti ziddiyatlar va ularning hal etilishi jarayonida namoyon bo‘ladi. Inson resurslari bu jarayonda ziddiyatlarning hal etuvchi kuchi hisoblanadi. Masalan, ta’lim bilan ijtimoiy tengsizlik o‘rtasidagi ziddiyatning hal qilinishi inson resurslarining rivojlanishiga bog‘liq. Amartya Senning rivojlanish nazariyasida esa inson resurslarini rivojlantirish orqali ijtimoiy adolat va ma’naviy yuksalish ta’minlanishi ta’kidlangan. Uning “qobiliyatlar” konsepsiyasi insonlarning salohiyatini to‘liq amalga oshirish zarurligini o‘rtaga qo‘yadi. L. X. Gazgiryeva va T.N. Lipatova tomonidan shaxsning salohiyatini tadqiq qilishda ma’naviy-axloqiy salohiyat muammosiga ham e’tibor qaratilgan. Gazgiryeva tomonidan ma’naviy salohiyatning bir qator muhim xususiyatlari belgilangan: - Gnoseologik (bilishga oid): shaxsning ongiga ta’sir qiluvchi usul va vositalarning samaradorlik darajasi. - Aksiologik (qadriyatga oid): shaxsning ma’naviy dunyosini shakllantiruvchi va uni aniq ideallarga yo‘naltiruvchi vositalar. - Ontologik (mavjudlikka oid): mavjudlikning tuzilmaviy-preobrazuvchi ma’nolari — kundalik hayot, muhabbat, erkinlik, ijodkorlik, ma’naviylik.[6] T. N. Lipatova esa ma’naviy salohiyatni shaxsning intellektual, axloqiy va

madaniy faoliyatida to‘liq yoki qisman namoyon bo‘ladigan ichki kuchlar va qobiliyatlarning majmuasi sifatida ta’riflaydi. Ma’naviy salohiyatning asosi, muallifning fikriga ko‘ra, hayotiy kuchlar va hayotiy resursdir. U shaxs yoki ijtimoiy tuzilmaning “ichida” mavjud bo‘ladi: - Muqarrar holda — imkoniyatlar va ularni amalga oshirish shartlari sifatida; - Istiqbolli holda — tegishli shart-sharoitlarda namoyon bo‘lishi mumkin bo‘lgan qobiliyatlar va imkoniyatlar sifatida; - Foydalanilayotgan holda — shaxsiy yoki ijtimoiy amaliyotda qisman amalga oshirilayotgan holda. T.N.Lipatova fikriga ko‘ra, “individning ma’naviy salohiyatini quyidagi xususiyatlar tashkil etadi: bilimlilik, doimiy ravishda bilimlarni to‘ldirishga intilish, ko‘nikmalarni takomillashtirish va mavjud iste’dodlarni rivojlantirish, kasbiy darajani oshirish, san’at olamida yo‘nalishlanish, san’at bilan doimiy aloqada bo‘lish ehtiyoji, milliy an’analar va 86 urf-odatlarga sodiqlik, shuningdek, universal, shaxsiy va diniy qadriyatlar, mehnat, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayot sohalaridagi qadriyatlar”.[7]

Demak, xulosa qilib aytganimizda, jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyotida inson resurslari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Inson resurslari faqat iqtisodiy manba emas, balki ma’naviy yuksalish va axloqiy qadriyatlarning asosidir. Insonning ijtimoiy va ma’naviy qiyofasi, ya’ni jamiyatga daxldorlik salohiyati oshgan sari uning jamiyatga beradigan foydasi oshib boradi. Bu esa, inson resurslarining ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyotgagi konstruktiv rolini ham ifodalab beradi. Inson resurslarini samarali rivojlantirish va boshqarish orqali jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyotga erishish mumkin. Falsafiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, inson resurslarini rivojlantirish ma’naviy kamolot va ijtimoiy adolatni ta’minlashning muhim shartidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1.Saitqosimov Akbar. Jamiyat barqarorligini ta’minlashda yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishning innovatsion omillari // Jamiyat barqarorligini ta’minlashda yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishning innovatsion omillari Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari.

2.Nazarov Qiyom. Jahon falsafasi qomusi. 1-kitob.-T.: O‘zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati.2022.B.920

3. Choriyev Anvar. Inson falsafasi: Inson haqidagi falsafiy fikrlar taraqqiyoti.-T.: O‘zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati.2007.B.416

4.Локк Дж. Педагогическиe сочинения.М.: 1939.С.112

5.Abu Ali ibn Sino. Salomon va Absol. Lirika, faisafiy qissaiar, she'r san'ati. Toshkent, 1980, B.60.

6.Казанцева Д.Б. Социально-философский анализ духовно-нравственного потенциала личности. Russian Journal of the Humanities Vol. 22, no. 1, 2022 С.47

7.Липатова Т. Н. Механизм воздействия ценностных ориентаций населения на формирова ние и развитие духовного потенциала региона // Вестник экономики, права и социологии. – 2010. – № 3. – С. 143–147.